



HISTORICAL-PHILOSOPHICAL BASIS OF TEACHING YOUTH CRAFTS

Javakhir Mahmudjonov

Independent researcher at Fergana State University

j.mahmudjonov@mail.ru

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Youth, crafts, development of society, material and spiritual culture, potential, development, craftsman, young generation.

Abstract: This article examines the role of crafts in the history of the peoples of the East from a socio-philosophical perspective. The advantages of crafts in social relations, economic and spiritual life of society are of great importance. This, in turn, reveals the necessity of national craft traditions for the development of society.

Received: 04.04.26

Accepted: 05.04.26

Published: 06.04.26

YOSHLARGA HUNARMANDCHILIKNI O'RGATISHNING TARIXIY-FALSAFIY ASOSLARI

Javoxir Mahmudjonov

Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

j.mahmudjonov@mail.ru

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Yoshlar, hunarmandchilik, jamiyat taraqqiyoti, moddiy va ma'naviy madaniyati, salohiyat, taraqqiyot, hunarmand kishi, yosh avlod.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sharq xalqlari tarixida hunarmandchilikning o'zni ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etilgan. Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, iqtisodiy va ma'naviy hayotida hunarmandchilikning afzalliklari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu o'z o'rnida jamiyat taraqqiyotida milliy hunarmandchilik an'analarning zarurati muhim ekanligi ochib berilgan.

ИСТОРИЧЕСКО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ МОЛОДЕЖНЫМ РЕМЕСЛАМ

Жавохир Махмуджонов

Независимый исследователь

Ферганского государственного университета

j.mahmudjonov@mail.ru

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Молодежь, ремесла, развитие общества, материальная и духовная культура, потенциал, развитие, ремесленник, молодое поколение.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль ремесел в истории народов Востока с социально-философской точки зрения. Большое значение имеют преимущества ремесел в социальных отношениях, экономической и духовной жизни общества. Это, в свою очередь, выявляет необходимость национальных ремесленных традиций для развития общества.

Kirish. Jamiyat taraqqiyoti va barqaror rivojlanishida yosh avlodni kasb-hunarli qilib tarbiyalash muhim ijtimoiy vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, hunarmandchilik an'analari nafaqat iqtisodiy faoliyat turi, balki xalqning ko'p asrlik madaniy merosi, milliy qadriyatlar va estetik dunyoqarashini o'zida mujassam etgan noyob tizim sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, yoshlarga hunarmandchilikni o'rgatish jarayoni nafaqat amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, balki ularning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlashda ham muhim omil hisoblanadi.

Tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo hududida hunarmandchilik qadimdan rivojlangan bo'lib, u ustoz-shogird an'anasi asosida avloddan-avlodga o'tib kelgan. Ushbu tizim yoshlarni mehnatsevarlik, sabr-toqat, mas'uliyat va ijodkorlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan. Hunarmandchilik nafaqat moddiy mahsulot yaratish jarayoni, balki ma'naviy tarbiya, estetik did va ijtimoiy tajribani shakllantiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'lgan. Shu jihatdan, hunarmandchilikni o'rganish va o'rgatish jarayoni chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lib, u o'zining falsafiy mazmuni bilan ham ajralib turadi.

Falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, hunarmandchilik insonning ijodiy mehnati, tabiat va jamiyat bilan uyg'un aloqasi hamda o'zini-o'zi ro'yobga chiqarish jarayonining ifodasidir. Mehnat falsafasi doirasida hunarmandchilik insonning borliqni o'zgartirishga qaratilgan ongli faoliyati sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, hunarmandchilikda go'zallik va foydalilik uyg'unligi

mujassam bo‘lib, u estetik va amaliy qadriyatlarning birligini ta’minlaydi. Bu esa yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllantirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv va texnologik rivojlanish sharoitida an’anaviy hunarmandchilikni saqlash va uni yoshlar orasida keng targ‘ib qilish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Chunki zamonaviy ishlab chiqarish tizimlari rivojlanayotgan bir paytda milliy hunarmandchilik yo‘nalishlarining yo‘qolib ketish xavfi ham mavjud. Shu bois, hunarmandchilikni zamonaviy ta’lim tizimi bilan integratsiya qilish, uning tarixiy-falsafiy asoslarini chuqur o‘rganish va yoshlar ongiga singdirish muhim ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Jahonda globallashuv jarayoni kechayotgan sharoitda har bir davlat nafaqat tabiiy va iqtisodiy, balki inson omili, jumladan, yosh avlodni tarbiyalash, shart-sharoitlar yaratish, ularning intellektual salohiyatidan samarali foydalanish usullarini takomillashtirib bormoqda. Xususan, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi yangi iqtisodiy dunyoqarash, yangicha iqtisodiy munosabatlar asosida erkin va farovon jamiyat qurish hamda milliy xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu Strategiyani amalga oshirishda har qaysi shaxs, inson, har bir oilaning tinch va farovon hayot haqidagi ezgu niyat va xohish-istaklarini ro‘yobga chiqarish, aholi turmush darajasining barqaror o‘sib borishini ta’minlash e’tiborimiz markazida bo‘ladi[1.129.]”. Bu esa global miqiyosda ma’lumki, inson hayotda o‘z o‘rnini topa olishi uchun yoshligidan ilmu-odobga, kasb-hunarga o‘rgatish zarurligi anglatadi.

Qadimgi Sharqda milliy hunarmandchilik an’analari masalalarini rivojlantirish muammosi ko‘p manbalarda tadqiq etilgan. Abu Nasr Forobiy “Kasb-hunar ahlining axloqiy fazilatlarini to‘g‘risida fikr yuritir ekan, kasb-hunarni egallash va kamolatga erishishga o‘z ixtiyoricha havas bilan intilgan kishilar haqiqiy fazilat egalari va haqiqiy san‘at egalardir, ular amaliy ish bilan shug‘ullanuvchi, kasb-hunarga berilgan kishilardir” [2.53] deydi. “Bolajonlarim, hunar o‘rganing, chunki dunyoning mulku davlatiga ishonish yaramaydi, oltin-kumush ham bu safar diyorida xavfu xatardir. Yo o‘g‘ri birdan olib ketadi yo egasi oz-oz xashlab tagiga yetadi. Ammo hunar qaynar buloq va bitmas davlatdir. Agar hunarmand kishi davlatidan ajrasa na g‘amu na ofatdir, chunki hunarning o‘zi davlatdir. U qayerga borsa, qadrini topadi, mansabga minib baxti chopadi, behunar doimo qattiqchilik ko‘radi va sarqit teradi”[4.39].

Yoki falsafiy tafakkurning beshigi bo‘lib hisoblangan Misr va Bobilda mil.avv. III asrning oxiri va II asr boshlarida shakllangan birinchi falsafiy g‘oyalarni uchratish mumkin. “Memfis traktati”, “Arfist kuyi”, “Gilgamesh haqidagi doston”, “Etap haqidagi afsona” kabi yozma yodgorliklarda tabiat, jamiyat, inson va hayotning kelib chiqishi, hayotning mazmuni, ruhning abadiyligi, turli udumlar, hunarmandchilik marosimlari, qabilalar o‘rtasidagi ishlab chiqarish

qonun-qoidalar o'z ifodasini topgan. Bular da insonning mohiyatini ifodalash, qadimgi kishilarni baxt va farovonlikka, salomatlik va birdamlikka, o'limni yengib, mangu hayot kechirishga undovchi, abadiy umr ato qiluvchi "obi-hayot" bilan bog'liq bo'lgan ko'plab fikrlarni uchratish mumkin. Bunday fikrlardan hunar o'rgangan va hunar bilan shug'ullangan inson bekami ko'st bo'lishini anglasa bo'ladi. Ushbu yozma yodgorliklarda o'rin olgan lavhalar, bayon etilgan fikrlar odamlarning kundalik hayotida orttirgan tajribalari, ularning kelajak bilan bog'lagan umidlari asosda yaratilgan bo'lib, inson, uning tafakkuri, faoliyati haqidagi o'ziga xos bilimlarning darajasini belgilagan.

Hunarmandchilik va hunarga oid yaxlit qarashlar mil. avv. I asr boshlarida moddiy va ma'naviy madaniyati rivojlangan Hindiston va Xitoyda shakllangan. Qadimiy Hindistonda falsafa, adabiyot keng rivojlangan. "Ramayana", "Mahobhorat", "Kalila va Dimna" kabi mashhur asarlar shular jumlasidandir. Yuksak nafosat va hikmat xazinasini bo'lgan ana shu asarlarda hind xalqining urf-odatlar va an'analari, odob-axloqi va madaniyati, dini va tarixi, milliy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, badiiy, falsafiy qarashlari o'z ifodasini topgan. Abu Rayhon Beruniy fikricha, "Hindiston falsafiy tafakkurida miloddan avvalgi II ming yillikning oxiri I ming yillik o'rtalarigacha bo'lgan tarixiy davr "Veda" davri deb ataladi. "Hindistonda xalqining afsonalari, urf-odatlar, poeziyasi, ilk falsafiy bilimlari, ma'naviyatini o'rganishda hunarmandchilik juda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi" [4.106.]. Ularda jamiyatning rivoji, jumladan, uning mavjud ijtimoiy va oilaviy munosabatlar, iqtisodiy va ma'naviy hayotida hunarmandchilikning afzalliklari afsonaviy tasavvurlar orqali bayon etilgan.

Qadimgi Hindiston diniy va falsafiy qarashlarida kishilarni hunar egallashga, yaxshi ishlarga chorlashni, yomon ishlardan qaytarishni, amallarning chegarasini aniq ko'rsatib qiziqtirishni, yaxshi mukofot va jazolar targ'ib qilingan. Hind falsafasida inson ruhiy olami emas, balki tana va jon masalasi ko'proq yoritilgan. Insonning abadiyatga erishuvi uning hunar egallaganligiga ko'p jihatdan bog'liqligi ta'kidlanadi. Faqat qalban pok, o'zida insonga xos bo'lgan eng yaxshi fazilatlarni mujassam eta oladigan, yaxshilikka intilib yashayotgan, boshqacha aytganda, ma'naviyatli kishigina abadiy hayotga erishishi mumkinligi haqidagi g'oya hind falsafasining o'zagini tashkil etadi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, insonning fazilatlari, ichki go'zalligi, ruhiy olami va tafakkurining kengligini, boshqacha aytganda, ma'naviyatining darajasini ham aynan uning mohiyatidan izlash lozim. Shu kabi fikrlar Konfutsiy ta'limotida ham uchraydi. Uning ta'limotida inson axloqi, mehnatsevarlik, tartib-intizom va jamiyatga foyda keltirish g'oyalari muhim o'rin tutadi. Uning qarashlarida milliy hunarmandchilikka bevosita ta'rif berilmasa ham,

hunarmandchilikka xos bo'lgan fazilatlar — mas'uliyat, mahoratini takomillashtirish, halol mehnat kabi qadriyatlar keng yoritilgan.

Konfutsiy inson doimo o'z ustida ishlashi, mehnat qilish orqali kamolotga erishishini ta'kidlaydi. Hunarmandchilik ham sabr-toqat va doimiy mehnatni talab qiladigan faoliyat sifatida qadrlanadi. Konfutsiy ta'limotida mehnatsevarlik, mas'uliyat, mahoratini oshirish, an'analarni hurmat qilish va jamiyatga xizmat qilish kabi g'oyalar milliy hunarmandchilik fazilatlarini bilan uyg'un hisoblanadi. Shu sababli uning ta'limoti hunarmandchilikning axloqiy va ma'naviy asoslarini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Konfutsiy falsafasida ma'naviy, axloqiy mazmun ustunlik qiladi. Faylasuf o'zining ijtimoiy utopik g'oyalarini ishlab chiqishda e'tiborini insonga qaratgan. Konfutsiy insonda va jamiyatda hunar egallashni va hunarni hamma narsalardan yuqori ko'yadi. Xitoy falsafiy madaniyati xilma-xil bo'lishiga qaramasdan, mohiyatan, ichki barqarorlikni, bir-biriga o'zaro bog'lanib ketishni tashkil etadi. Oqibatda, xitoylarga xos fikr yuritish usulining ustunligi to'g'risida fikr shakllanib, o'zga falsafiy qarashlarga nisbatan betakror hissiyot yuzaga keladi[5.89.].

Tadqiqot metodologiyasi. Har qanday davlat o'z jamiyatining tarixiy, madaniy, ma'naviy, axloqiy merosi negizlari asosida rivojlanadi. Bunday uyg'unlik xalqni rivojlanishning yangi bosqichlariga ko'taradi, uning istiqboli omillarini kengaytiradi. Dunyodagi har bir xalq jahon madaniyatining bebaho xazinasiga o'zining hunarmandchilik an'analari va qo'l mehnati orqali yaratilgan bebaho asarlari bilan ulushini qo'shgan. Ana shu xazinada Sharq mamlakatlari xalqlarining hissasi tarixiylik va mantiqiylik asosida ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etiladi.

Tahlillar va natijalar. Qadimgi Sharq xalqlarining hunarmandchilik madaniyati, milliy an'analari, ma'naviyati, falsafasi, dunyoqarashi asosan diniy g'oyalar bilan sug'orilgan. Bobil, Misr, Hindiston, Xitoy singari qadimgi Sharq mamlakatlarida paydo bo'lgan va rivojlana boshlagan dastlabki ma'naviy qarashlarning ildizlari, boshlang'ich asoslari jahon xalqlari tarixi va madaniyatining uzoq o'tmishiga borib taqalishini ko'rsatib va isbotlab turibdi. Qadimgi Xitoy falsafasining nazariy manbalari, uzoq davr mobaynida yashab kelgan an'alar asosida insonning yetuklikka erishuvi haqidagi ta'limotlar va turli-tuman hunarlar kamol topdi. Qadimgi Sharq falsafasining dastlabki kurtaklari, jahon falsafasining ilk yutuqlariga asoslangan, ulardan oziqlangan, ijodiy foydalangan holda shakllanib, rivojlanib borishi bilan bir qatorda, o'z navbatida, insoniyat falsafiy bilimlarining kelgusi taraqqiyotiga zamin bo'lib xizmat qildi hamda o'zining ijodiy ta'sirini ko'rsatganligi bilan ahamiyatlidir.

Sharq xalqlarining hunarmandchilik bilan bog'liq bo'lgan turmush tarzi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan alohida ijtimoiy-falsafiy jarayon hisoblanadi. Bunda jamiyat

hayotidagi o'rnini topishda hunarning o'rnini muhim ekanligi ta'kidlanadi. Shuningdek, insonlarni xususan yoshlarni ijtimoiy nufuzi, mehnat qilishi, olib borayotgan faoliyatning turlari, innovatsion tafakkuri, tadbirkorlik madaniyati, intellektual salohiyati va ijodiy qobiliyatini namoyish etishi bilan bog'liq jarayonlarni o'z ichiga olishi bilan ahamiyatlidir. Ikkinchidan, Yangi O'zbekistonda "Uchinchi Rennassans"ni komil insonni tarbiyalamasdan, uning siyosiy ongi, madaniyati, ma'naviyati, ijtimoiy va yaratuvchanlik faoliyatini yuksak darajaga ko'tarmasdan turib, barqaror taraqqiyotga erishish mumkin emas. Shuning uchun ham milliy hunarmandchilikning mohiyati yoshlarning ijtimoiy faolligining oshib borishiga ta'siri doirasidagi muammolarini o'rganish hayotiy ehtiyojga aylanmoqda. Uchinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida xalqimiz oldida turgan va amaliy yechimi kelajagimiz uchun katta ahamiyat kasb etadigan muammolar, vazifalarni to'g'ri hal qilish, ko'p jihatdan, fuqarolar, xususan, yoshlarning kasbiy kamolotiga, ijtimoiy-madaniy, siyosiy, huquqiy savodxonligiga, iymon va e'tiqodiga bog'liqdir.

Xulosa. Yoshlarga hunarmandchilikni o'rgatishning tarixiy-falsafiy asoslarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, hunarmandchilik insoniyat taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida nafaqat iqtisodiy faoliyat, balki ma'naviy-madaniy meros va ijtimoiy tajriba uzviylikini ta'minlovchi muhim tizim hisoblanadi. Tarixiy manbalarda hunarmandchilikning ustoz-shogird an'anasi asosida rivojlangani, yosh avlodni kasbiy ko'nikmalar bilan bir qatorda axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qilgani yaqqol namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, hunarmandchilikni o'rgatish jarayoni chuqur falsafiy mazmunga ega bo'lib, u mehnatning ijtimoiy va ontologik mohiyatini, insonning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish hamda tabiat va jamiyat bilan uyg'unlikda yashash g'oyalari o'zida aks ettiradi. Bu jarayon yoshlarning mehnatsevarlik, sabr-toqat, mas'uliyat, estetik did va mustaqil fikrlash kabi sifatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy sharoitda globallashtirish va texnologik taraqqiyot ta'sirida an'anaviy hunarmandchilikka bo'lgan munosabat ma'lum darajada o'zgarib borayotgan bo'lsa-da, uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ahamiyati saqlanib qolmoqda. Aksincha, hunarmandchilikni zamonaviy ta'lim tizimi bilan integratsiya qilish, innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish va yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Shu bois, yoshlarga hunarmandchilikni o'rgatishning tarixiy-falsafiy asoslarini chuqur o'rganish va uni amaliyotga tatbiq etish milliy merosni asrash, yoshlar bandligini ta'minlash, ularning kasbiy va ma'naviy kamolotini yuksaltirish hamda jamiyatda barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ilmiy va metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тошкент. “Ўзбекистон”. 2022.
2. Абу Наср Форобий Фозил одамлар шахри. Тошкент. 2016.
3. Ҳасанов С. Мутафаккирлар меҳнат тарбияси ҳақида. Тошкент, Ўқитувчи, 1993.
4. Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. 2-жилд.-Тошкент. Фан, 2000.
5. Жаҳон фалсафаси тарихидан лавҳалар. Тошкент. Файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2004.